

5.6. AMALIY MASHG'ULOT. OVQAT HAZM QILISH SISTEMASINI MODELLASHTIRISH

Maqsad: odam va hayvonlarning hazm qilish organlari tuzilishini modellashtirish orqali o'rghanish.

Bizga kerak: rangli qog'ozlar to'plami, qaychi, yelim, stol ustiga pylonka, karton qog'oz, rangli plastilin jamlanmasi.

Xavfsizlik qoidalari: 


- 1) Qaychi bilan ishlaganda ehtiyoj bo'ling.
- 2) Plastilin bilan ishlashda tozalik qoidalariga rioya qiling.
- 3) Plastilin bilan ishlashda qo'lingiz bilan ko'zingiz va yuzingizni ushlamang.
- 4) Ishni tugatgach, stolingizni tozalab qo'ying.
- 5) Qo'llaringizni yuvning.

1-topshiriq. Odamning og'iz bo'shlig'ida til va tishlar joylashgan. Odamda doimiy tishlar soni 32 ta. Shundan kurak tishlar soni 8 ta, qoziq tishlar soni 4 ta, kichik oziq tishlar soni 8 ta, katta oziq tishlar soni 12 ta. Har bir o'quvchi tishlarni sog'lom saqlash qoidalarini bilishi zarur.


Odamning og'iz bo'shlig'ida tishlarning joylashuvini modellashtiring.

Ishni bajarish tartibi:

- 1) Qizil rangli qog'ozdan og'iz bo'shlig'i modelini oval shaklida kesib oling.
- 2) Oq qog'ozdan kurak, qoziq, oziq tishlarining modelini kesib oling.
- 3) Og'iz bo'shlig'i modeliga tishlarni tartib bilan joylashtiring va yelimlang (5.19-rasm).



5.19-rasm. Odam og'iz bo'shlig'inining modeli.



5.20-rasm. Drosophilada ovqat hazm qilish organlari tuzilishining modeli.

2-topshiriq. Tishlarni sog'lom saqlash qoidalarini ishlab chiqing.

3-topshiriq. Hasharotlarning ovqat hazm qilish organlari og'izdan boshlanib, orqa chiqarish teshigi bilan tugallanadi. Oziq og'iz bo'shlig'ida so'lak bilan aralashadi va qisqa halqum orqali qizilo'ngachga, undan muskulli oshqozonga tushadi. Oshqozonda ezilgan oziq ichakka o'tadi. Ichakda oziq hazm bo'ladi. Ichak oldingi, o'rta va orqa ichaklardan tashkil topgan. Oldingi va orqa ichak ichki tomonidan kutikula bilan qoplangan, o'rta ichakda esa kutikula bo'lmaydi.


Shuning uchun qabul qilingan ovqat ichakning shu qismida so'rildi. Hazm bo'lmay qolgan oziq qoldiqlari orqa chiqaruv teshigi orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.

Hasharotlarning ovqat hazm qilish sistemasi modelini yasang (5.20-rasm).

Ishni bajarish tartibi:

1. Stolingiz ustiga pylonka soling.
2. Pylonka ustiga oq qog'oz qo'ying.
3. Hasharotlarning ovqat hazm qilish organlari ketma-ketligini plastilinning har xil ranganidan foydalanib yasang.
4. Modelni yasashda quyidagi rasmdan foydalaning.

4-topshiriq. Qushlarning ovqat hazm qilishini diqqat bilan o'rganing va moslanishlarni aniqlang (5.21-rasm).



5.21-rasm. Qushlarning ovqat hazm qilish organlari tuzilishi.

5-topshiriq. Quyidagi oziq mahsulotlaridan foydalanib kunlik ovqat ratsioningizni tuzing.



Muhokama qiling va xulosa chiqaring.